



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MUMTOZ ADABIYOTDAGI QOFIYALI NASRNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI («BOBURNOMA» MATNI MISOLIDA)

Shergoziyev Shuxrat Sheraliyevich,
Namangan muxandislik-texnologiya instituti
e-mail: shuhratshergoziyev@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183759>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda qofiyali nasr janrining o'ziga xos jihatlari va uning tarjima jarayonidagi murakkabliklari tahlil qilinadi. Xususan, «Boburnoma» matnidagi saj'li jumalarning ingliz tiliga tarjima qilinishidagi lingvistik va stilistik muammolar o'rganiladi. Shuningdek, qofiyali nasrning tarjimada yo'qolishi yoki uning muqobil variantlar orqali qayta yaratilishi masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida turli tarjimalar tahlil qilinib, ularning badiiy hamda semantik jihatdan qanchalik mos kelishi baholanadi.

Kalit so'zlar: saj', qofiyali nasr, adabiyot, tarjima, hokimiyat, mag'lubiyat,

Annotation: This article examines the unique features of rhymed prose in classical literature and the challenges associated with its translation. Specifically, it analyzes the linguistic and stylistic difficulties in translating the rhymed sentences of Baburnama into English. The study explores how the loss of rhymed prose in translation affects the literary quality of the text and whether alternative methods can effectively convey its original artistic value. Various translations are compared to assess their semantic and aesthetic accuracy.

Key words: saj', rhymed prose, literature, translation, authority, defeat in the war.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности рифмованной прозы в классической литературе и сложности её перевода на английский язык. В частности, анализируются лингвистические и стилистические трудности передачи рифмованных предложений Бабурнаме на английском языке. Исследование затрагивает вопросы потери рифмованной прозы при переводе, её влияние на художественную ценность текста, а также возможности воспроизведения данного стиля альтернативными методами. В работе проводится сравнительный анализ различных переводов с оценкой их семантической и эстетической точности.

Ключевые слова: садж, рифмованная проза, литература, перевод, власть, поражение.

Saj' - nasriy nutqda qofiyadosh jumalarni ishlatish orqali matnga ohangdorlik va estetik go'zallik baxsh etuvchi uslubdir. U asosan qadimgi arab, fors va turkiy adabiyotda rivojlangan bo'lib, diniy va badiiy asarlarda keng qo'llangan. Saj' quyidagi xususiyatlarga ega: Qofiyali jumlar: Matnning ohangdorligi qofiyali so'zlar orqali ta'minlanadi. Ritmik uyg'unlik: Gaplarning ohangdoshlik bilan kelishi tinglovchiga zavq bag'ishlaydi. Badiiy ta'sirchanlik: Saj'dan foydalanish nutqni yanada ta'sirchan qiladi. Saj' qadimgi arab adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa Qur'oni Karim oyatlarida ko'plab saj'li iboralar uchraydi. Keyinchalik bu uslub fors va turkiy adabiyotga ham kirib kelgan. Xususan: Arab adabiyotida, al-Xamadoniy, al-



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Haririy va Mahmud az-Zamaxshariy shuningdek ko'proq diniy matnlarda, jumladan, Qur'on oyatlarida uchraydi. Fors adabiyotida, Xususan, Nasrulloh Atorning "Kalila va Dimna" asarida saj' uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Turkiy adabiyotda, Alisher Navoiy, Bobur kabi adiblar o'z nasriy asarlarida saj'dan foydalanganlar. Mumtoz adabiyotda qofiyali nasr janri alohida o'rin tutib, u nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki semantik hamda lingvistik xususiyatlari bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. «Boburnoma» ushbu janrning yorqin namunasi. Uni boshqa tillarga, ayniqsa, ingliz tiliga tarjima qilishda lingvistik va stilistik muammolar yuzaga keladi. Quyida «Boburnoma» matni misolida qofiyali nasrning ingliz tiliga tarjimasida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari tahlil qilinadi. «Boburnoma mantida» Sulton Husayn Mirzo va uning taxt vorislari ortasidagi ziddiyatlardan tasvirlangan. Bobur Sulton Husayn mirzo va uning farzandlari shahzodalar Badiuzzamon mirzo, Muzaffar Husayn mirzo va Mo'min Mirzolar o'rtasidagi taxt va hokimiyat uchun kechgan to'qnashuvlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlar shahzodalar shon shuhratga va yengil hayotga shu darajada berilib ketishdiki ramazondek tabarruk va aziz oy kelishiga bir kun qolgan bo'lsa ham hattoki safardan kelgan otasidan iymanmay mayxo'rlik va dilxushlika berilib ketishadi.[1,268] Bunday hayot kechiradigan avlodga mag'lubiyat aniq ekanligi ifodalaydi. Chunki mamlakatni bu holda idora qilish va sarhadlarini himoya qilishni o'ylamaslik saltanat tanazuliga olib keladi. Bobur bu jumalalarda *shikast topqay* va *dast topqay* kabi saj'i mutarrafni ishlatadi. «*Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay.*» [2,57] Jumlada «*topqay*» so'zi bizga ma'lumki biron bir ish natijasida kelajakda amalaga oshadigan va sodir bo'ladigan ijobiy yoki salbiy yakunga nisbatan ishlatiladi. Bobur ham shahzodalarni bunday yo'l tutishlari yakunda salbiy oqibatlariga olib kelishini «*topqay*» so'zi orqali ifoda etgan. Yuqorida Boburnomada keltirilgan jumlaning Leyden-Erskin quyidagicha tarjima qiladi: «*These Mirzas were so extravagantly addicted to vice and pleasure, that, regardless of the approach of their father, a prince of great wisdom and experience, who had come from such a distance, and regardless of the holy and blessed month of Ramzan, of which only a single night had been enjoyed; without any reverence for their father, and laying aside the fear of God, they only thought of drinking wine and revelling in wanton-ness. But most certain it is that such conduct inevitably leads to destruction; and that they who so demean themselves will inevitably fall before the first attack.*» [3, 71] (*Biroq, bunday xatti-harakatlar muqarrar ravishda halokatga olib kelishi aniq va o'zlarini shunday tahqirlaganlar birinchi hujumdayoq mag'lub bo'lishadi.*) tarjimadagi «*inevitably leads to destruction, will inevitably fall*»



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

matndagi «*shikast topqay va dast topqay*» saj' xususiyatni saqlab qolish uchun tarjimonlar ikki shaklda ham «*inevitably*» soʻzidan foydalangan.

Yuqorida keltirilgan jumladagi saj'lar A.Beverij tarjimasida: *The (rebel) Mirzas were so given over to vice and social pleasure that even when a general so skilful and experienced as their father was within half-a-day's journey of them, and when before the blessed month of Ramzan, one night only remained, they busied themselves with wine and pleasure, without fear of their father, without dread of God. **Certain it is that those so lost (yutkan) will perish and that any hand can deal a blow at those thus going to perdition (autkan).*** [4, 70] (Albatta, adashganlar halok boʻladilar va har qanday kuch bu tarzda halok boʻladiganlarga zarba berishi mumkin MT.) matnda kelgan «*shikast topqay va dast topqay*» tarjimada «*will perish va deal a blow*» shaklida berilgan. «*Will*» modal fe'li orqali «*topqay*» saj'i ingliz tilida ifodalangan. Beverij tarjimasida asliyatda kelgan saj' shakli saqlab qolinmagan boʻlib asosiy e'tibor ma'nodosh soʻzlarga qaratilgan.

V.Tekston tarjimasida saj' shakliga yaqinroq boʻlgan soʻzlarni koʻrishimiz mumkin: *The princes were so besotted with their debauchery and pleasure that when an experienced ruler like their father was within a half-day's journey and only one night was left before a blessed and holy month like Ramadan, without notice of their father and without fear of God they went right on with their drinking and carousing **It is certain that such a person will be defeated and anyone will gain the upper hand over one who passes his time thus.*** [5, 78] Tekston Leyden-Erskin va Beverijdan farqli *will* modal fe'lidan ikki marta foydalangan holda *shikast topqay va dast topqay* saj'larini *will be defeated and anyone will gain the upper hand* tarzda tarjima qilgan. Yuqoridagi uchta tarjima namunlardan Leyden-Erskin va Tekston ishlarida asliyatdagi saj'ni saqlashga urunganini guvohi boʻlishimiz mumkin.

Mumtoz adabiyotda qofiyali nasr tarjimasini murakkab, ammo muhim jarayondir. «Boburnoma»ni ingliz tiliga tarjima qilishda lingvistik va stilistik muammolar yuzaga keladi, chunki bu asar oʻz davrining til va adabiy anʼanalarini oʻzida aks ettiradi. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy va tarixiy kontekstni chuqur tushunishga ham ega boʻlishi kerak. Shuningdek, qofiyali nasrning estetik xususiyatlarini saqlab qolish, uning oʻziga xos ritmini yoʻqotmaslik uchun ijodiy yondashuv zarur. Tarjima jarayonida sintaktik soddalashtirish, ekvivalent topish va izohli tarjimadan foydalanish matnning mazmuniy toʻliqligini saqlashga yordam beradi. Natijada, «Boburnoma»ning inglizcha tarjimasini oʻzbek mumtoz adabiy merosini keng auditoriyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. – Toshkent: «Sharq», 2014. – B.341.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002
3. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826.
4. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.
5. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996